

1. Мирзиёев Ш. М. ПП-4670-сон 10.04.2020. О мерах по охране, культурному выращиванию, переработке дикорастущих лекарственных растений и рациональному использованию имеющихся ресурсов.
2. Давыдов Н. Н. Ботанический словарь Русско-английско-немецко-французско-латинский. – М., 1960.
3. Кузнецова М. А. Сказания о лекарственных растениях. –М: Высшая школа, 1986.
4. Погорелова Е. С. Этимология названий лекарственных растений. // Молодой ученый. — 2015. — № 1 (81). – С. 438.

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Umarjon G‘OYIBOV

*O‘zbekiston davlat jahon tillari
universiteti tayanch doktoranti*

Annotatsiya. *Frazeologik birlik – qisman yoki to‘liq ko‘chma ma‘noni ifodalovchi ikki yoki undan ortiq so‘z komponentlaridan iborat til birligidir, jumladan Cordelia’s gift, pie in the sky, Jack of all trades but master of none, kabilar. Frazeologik birliklar shunday o‘ziga xos xususiyatlarga egaki, bu bilan ular so‘z, so‘z birikmasi va gaplardan farq qiladigan jihatlari turlicha aspektda namoyon bo‘ladi, hamda ushbu jihatlari ko‘plab tilshunos olimlarning tadqiqot ishlarida turlicha nuqtayi nazardan yondashilib asoslab berilgan. Bundan tashqari, tilshunos olimlarning izlanishlarida frazeologik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida alohida to‘xtalib, ularga ta’rif berilgan. Ushbu maqolada esa frazeologik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida turli-tuman aspektda berilgan ta’riflar muhokama qilinib, ularga munosabat bildirilgan.*

Kalit so‘zlar: *frazeologik birlik, o‘ziga xos xususiyat, turg‘unlik, majoziylik, yaxlitlik, semantik birlik, barqarorlik, struktur-semantik tuzilish, o‘ziga xos funktsiya.*

Tilshunoslikning mustaqil fan tarmog‘i sifatida frazeologiya o‘z tadqiqot obyektiga ega bo‘lib, frazeologik birliklar deb atalmish umumiy termin ostida turg‘un so‘z birikmasi, iboralar, idioma, maqol hamda matallarni o‘z ichiga olib, ularning o‘ziga xos xususiyatlari hamda gapda bajaradigan vazifalarini tadqiq qiladi. Ma’lumki, qisman yoki to‘liq ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan, ma’noviy yaxlitlikka ega bo‘lgan hamda o‘z komponentlari turg‘un bo‘lgan ikki yoki undan ortiq so‘zlar guruhini frazeologik birliklar deyishimiz mumkin.

Frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritadigan bo'lsak, birinchi navbatda frazeologiya tilshunoslikning mustaqil fan tarmog'i sifatida frazeologik birliklarning belgisi, funksiyali va strukturaviy- semantik xususiyatlarini, ma'nolarini, bundan tashqari, frazeologik birliklarning leksik komponentlarini, sintaktik va morfologik qurilishini, boshqa til birliklari bilan sintaktik munosabatlarini hamda nutqdagi ifoda shaklini o'rganadi. Qolaversa, frazeologik birliklar nutqni boyitishga, fikrni ta'sirchan tarzda ifoda etishga yordam beradi.

“O'zbek tili frazeologik lug'ati”da frazeologik birliklarning eng xarakterli belgilari sifatida quyidagilarni sanab o'tadi: 1) nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik; 2) ma'no yaxlitligi; 3) tuzilishi va tarkibining barqarorligi [Rahmatullayev, Mahmudov, Xolmanova, O'razova & Rixsiyeva, 2022; 7]. Zero, frazeologik birliklar, shaklan o'zlariga o'xshash sintaktik tuzilmalardan farqli ravishda, nutqda so'zlarni erkin tanlash, almashtirish yo'li bilan yuzaga kelmaydi, balki ma'no va muayyan leksik- grammatik tarkibli, avvaldan tayyor material sifatida qo'llanadi.

Tilshunos olim R. U. Madjidova tadqiqot ishida keltirilishicha, frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilar sanab o'tilgan: 1) frazeologik birlik ma'nosi so'z yoki so'z birikmasi orqali ifodalanishi; 2) frazeologik birlik bir vaqtning o'zida to'g'ri va ko'chma ma'nolarda qo'llanilmasligi; 3) frazeologik birlik komponentlarining birontasiga logik urg'u qo'yib bo'lmasligi; 4) frazeologik birlik komponentlari to'liq yoki qisman semantik mustaqillikdan mahrum ekanligi; 5) frazeologik birliklar aktual birliklarga ajratilmasligi; 6) frazeologik birliklar bitta tushunchani bildirishi [Madjidova, 2008; 16-17].

Bundan tashqari frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari borasida tilshunos olimlar turlicha aspektda tasvirlab berganlar. Darvoqe, A. I. Fedorov frazeologik birliklarning ekspressiv- stilistik xususiyatlari haqida so'z yuritarkan, unda ular qandaydir yangi holatlarni atash uchun vujudga kelmasligini, balki predmetlarni, tildagi mavjud holatlarni obrazli- emotsional tahlil qilish, konkretlashtirish uchun yaratilishini alohida ta'kidlaydi [Fedorov, 2002]; N. S. Valgina, D. E. Rozental va M. I. Fomina kabi olimlar frazeologik birliklarga xos xususiyatlar sifatida umumiy

ma'nosining turg'unligi, komponentlari va grammatik kategoriyalarining aniqligi kabilarni sanab o'tadilar [Valgina, Rozental & Fomina, 2002]; I. F. Belikova tildagi eng obrazli va konservativ sistemasi frazeologik birliklar ekanligini ta'kidlab o'tadi [Belikova, 2013]; A. Vrbink va M. Vrbink kabi olimlar frazeologik birliklarga tegishli belgilar sifatida sintaktik va leksik jihatdan ajralmasligi hamda ma'nosi ularning tarkibidagi so'zlarga bog'liq bo'lmaganligi kabilarni ko'rsatadi [Vrbink A. & Vrbink M., 2014]; V. Vinogradov va A. Kunin frazeologik birliklarning barqarorlik, ya'ni turg'unlik xususiyatiga urg'u berib, ular nutq jarayonida paydo bo'lmay, balki inson ongida tayyor holda shakllanishini, to'liq yoki qisman ko'chma ma'no anglatuvchi leksemalarning barqaror birikmalari ekanligini ta'kidlaydi [Vinogradov, 1977; Kunin, 1972]; I. Zikova frazeologik birliklar ulkan madaniy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni saqlay olish va zamonaviy va dolzarb ijtimoiy - madaniy voqea- hodisalarni o'zida aks ettirish xususiyatiga ega ekanligini, natijada yangidan- yangi konseptlarning paydo bo'lishiga o'z ta'sirini o'tkazishini qayd etib o'tadi [Zikova, 2001]; G'. Salomov frazeologik birliklarning semantik jihatida umumlashgan ko'chma ma'noni ifodalashini, grammatik jihatdan ularning butunligi, komponentlarining o'zaro birikuvi va gapda ham shu tartibni saqlab qolishi bilan izohlaydi [Salomov, 1983]; Z.N. Abdusamadov o'z tadqiqot ishida frazeologik birliklarning turg'un birikmalar bo'lishiga qaramay, o'zgaruvchanlik, dinamizm va transformatsion xususiyatlariga alohida e'tibor beradi [Abdusamadov, 2022; 24-25].

A.A. Nasirov o'zining tadqiqot ishida fransuz, o'zbek va rus tillaridagi yuzlab faktik materiallarni qiyoslagan holda frazeologik birliklarning asosiy xususiyatlari sifatida turg'unlik, majozilik, har bir komponenti alohida- alohida qayd etilganlik, kishi ongida qayta in'ikos etishi, semantik tutashlik, ekspressiv- motivlik va ifodalilik kabilarni keltirib o'tadi va ularning har biriga alohida ta'rif berib misollar bilan dalillaydi [Nasirov, 2016]. Jumladan, turg'unlik – bu ibora tarkibidagi so'zlar komponentlarining yagona ipga tizilganligi, shu belgisi bilan frazeologik birliklar tarkibini kengaytirish, boyitish, komponentlarini almashtirish imkoniyatiga ega ekanligi; majozilik – bu har qanday so'z birikmasi yoki ibora frazeologizm hisoblanishi uchun u avvalo ko'chma ma'noda

ishlatilishi; frazeologik birliklardagi har bir komponenti alohida- alohida qayd etilganlik xususiyati frazeologizmlar tarkibidagi komponentlarning soʻzdan ustunligi va ibora tarkibida yaxlitlashib yagona maʼnoni anglatishi; kishi ongida qayta inʼikos etish xususiyati – bu frazeologizmlarning inson xotirasida tayyor, ortiqcha komponentlarsiz, mukammal, turgʻun holda namoyon boʻlishi; semantik tutashlik – bu frazeologizmlar tarkibidagi komponentlar oʻzining asl maʼnosini qisman yoki toʻliq yoʻqotib semantik yaxlit, yagona maʼnoni anglatishi; ekspressiv - motivlik – bu nutq fakti belgilari semantik mazmunning intensivligi va belgilar paydo boʻlishining juda yuqori darajasi hisoblanib, soʻzlovchining obyekt yoki jarayonga boʻlgan munosabatini aks ettiruvchi xususiyat; ifodalilik – bu til birliklarining predmet yoki jarayon haqidagi obrazli, hayajonli tushunchalarni ifodalay olish imkoniyati kabilar.

Ingliz tilidagi idiomatik iboralarni oʻzbek tiliga oʻgirishning lingvistik xususiyatlarini tadqiq qilgan Sh.P. Raximova frazeologizmlarga xos boʻlgan eng asosiy mezonlarni birma- bir keltirib, ularga alohida sharh berib oʻtadi [Raximova, 2019]. Jumladan, barqarorlik, yaʼni oʻz ishlatilishiga koʻra doimiylik, uzviylik va uzluksizlik; turgʻunlik, yaʼni shakli jihatidan tarkibidagi soʻzlarning joylashishi va ketma-ketligi hamda maʼno jihatidan uning obrazlilik, axborotdorligining qatʼiyligi; yaxlitlik, yaʼni uning yaxlit, buzilmas konstruksiyaga hamda maʼnosiga ega ekanligi; obrazlilik, yaʼni his-tuygʻularning yorqin badiiy ifodasini anglatuvchi ekspressivlik, tilning inson psixologik va emotsional holatini namoyon etuvchi emotivlik va tildagi chaqiriq-undash tushunchalarining oʻziga xos tarzda ifodalanishini bildiruvchi volyuntativlik kabi elementlarga ega ekanligi; takroriylik, yaʼni tildagi oʻz lisoniy funksiyalarini har vaqt bajarib kelishi, badiiy adabiyot vakillari ijodida takror va takror qoʻllanilishi; lingvistik birlik, yaʼni oʻz turgʻun shakli va maʼnosi bilan bir lingvistik birlikka tengligi; kontekstlilik, yaʼni nutq va matnda aynan soʻzning emas, balki frazeologizmning soʻz orqali berilmagan maʼnodorlikni ochib berishi; leksik-semantik birlik, yaʼni leksik birlikka xos boʻlgan oʻz semantik doirasi va mavzu chegaralariga ega ekanligi kabilar.

Baʼzi bir olimlar frazeologik birliklarning soʻz, soʻz birikmasi va gaplardan farqli jihatlarini yoritib oʻtadi, jumladan, N.M. Shanskiy leksik va frazeologik birliklarning

funksional va mazmuniy o'xshashligi borasida so'z yuritar ekan, bunda ularning bo'linmas lingvistik turga mansubligi bilan bog'liqligidan kelib chiqqan holda ularni bir tilda bir butun holatda o'rganiladigan yagona leksik- frazeologik sistemani tashkil etishini ta'kidlab o'tadi [Shanskiy, 1969]; V.V. Vinogradov frazeologik birliklar oddiy so'z birikmasidan o'zining barqaror semantik tarkibi va turg'un grammatik shakli bilan farq qilishini ta'kidlab o'tadi [Vinogradov, 1977; 118-139]; M. Umarxo'jayev frazeologik birliklar va so'zlar o'rtasidagi farq ushbu birliklarning shaklan so'z birikmasi yoki gapga teng bo'lishini, ularni bog'lab turadigan jihat esa har ikkalasining ham gapning komponenti ekanligini ta'kidlab o'tadi [Umarxo'jayev, 1983].

N.N. Suvonova o'z izlanishlarida frazeologik birliklarning strukturaviy va semantik xususiyatlariga urg'u berib, ularni so'z va so'z birikmalaridan farqlaydi [Suvonova, 2002]. Unda frazeologik birliklarning so'zdan farq qiladigan jihati ularning ikki yoki undan ortiq komponentlardan tashkil topganligi va tarkibida bittadan kam bo'lmagan mustaqil so'z mavjud bo'lgan tilga xos alohida ko'rinishli murakkab birlik ekanligi qayd etib o'tilsa, so'z birikmalaridan farq qiladigan tomoni ularning leksik tarkiblarining turg'unligi bilan xarakterlanishi hamda gapiruvchi nutqida o'z- o'zidan paydo bo'lmay, balki oldindan tayyor holatda bo'lishi alohida ta'kidlanadi. Bundan tashqari olim frazeologik birliklarning bir necha xususiyatlarini sanab o'tgan; jumladan: 1) frazeologik birliklarning eng muhim va xarakterli struktur belgilaridan biri – ularning alohida so'zlardan yasalganligi; 2) frazeologik birliklar leksik tarkibining o'zgarmasligi; 3) frazeologik birliklar qo'llanishining muntazamligi, shu jihati bilan til birligi sifatida mualliflar tomonidan xususiy ravishda yaratilgan va nutqqa tegishli bo'lgan boshqa iboralardan farqlanishi; 4) frazeologik birliklarning semantik tuzilish jihati ularni tilning faqat alohida ko'rinishga ega bo'lgan birligi sifatida xarakterlashga imkon berishi; 5) frazeologik birliklarning asosiy xususiyatlaridan biri sifatida sanalgan semantik qayta qurilishi, shu jihati bilan ularning boshqa o'ziga xos muhim xususiyatlari bilan, jumladan frazeologik birliklar semantikasining yagonaligi va takrorlanmasligi bilan uzviy bog'liqligi, kabilar.

Ingliz va o'zbek tillari frazeologik birliklari va paremiyalari misolida gender aspektining qiyosiy- tipologik tadqiqini olib borgan G.I. Ergasheva o'z tadqiqot ishida A.M. Emirovaning pragmatik ma'no haqidagi nazariyasiga asoslanib frazeologik birliklarning ekspressiv, apellyativ, fatik va estetik kabi komponentlariga ega bo'lgan pragmatik ma'nosi haqida batafsil to'xtalib o'tadi [Ergasheva, 2011; 94-96]. Zero, A.M. Emirova pragmatik ma'no deganda predmet va uning xususiyatlarini tasvirlashdan tashqari so'zlovchining ichki va tashqi dunyosida sodir bo'layotgan hissiyotlarini, o'y - tafakkurini ifodalovchi vosita ekanligini ta'kidlab o'tgan [Emirova, 1988]. Xuddi shunday ma'noni frazeologik birliklarga ham tatbiq etgan G.I. Ergasheva yuqorida qayd etib o'tilgan har bir komponentlarga misollar yordamida alohida izoh berib o'tadi. Jumladan, pragmatik ma'noning ekspressiv komponenti so'zlovchining hissiyotlarini tasvirlashdan, apellyativ komponenti tinglovchiga nisbatan aqliy, hissiy, xatti- harakatli ta'sir o'tkazishdan, fatik komponenti aloqa o'rnatuvchi komponent sifatida kommunikantlarga ularning ijtimoiy - psixologik maqomi haqida ma'lumot berishdan, estetik komponenti so'zlovchilarning estetik zavqlanishini ta'minlovchi komponent bo'lib, so'zlovchining til boyligidagi eng mazmunli, jonli til birliklaridan tanlab, tinglovchida ham zavq tug'dirishdan iborat ekanligini qayd etib o'tadi. Shundan kelib chiqadiki, frazeologik birliklar so'zlovchining tinglovchiga nisbatan kutilgan pragmatik ta'siriga erishish maqsadida tinglovchiga olamni, predmet va voqea - hodisalarni, ularning mohiyati hamda o'zaro ta'sirini anglab, idrok etayotganini yetkazish xususiyatiga ham egadir.

Frazeologik birliklar gapda shunday o'ziga xos funksiyalarni, ya'ni vazifalarni bajaradiki, shu jihatdan ham tilning boshqa birliklaridan farqlanadi. Bu borada ba'zi tilshunos olimlar o'z fikrlarini keltirib o'tishgan. Jumladan, Ye.M. Vereshagin va R.I. Rozina tadqiqot ishida ko'rsatilishicha, frazeologik birliklar ikkita asosiy bajaradigan funksiyasi bilan tilning boshqa birliklaridan ajralib turadi [Vereshagin, 1983; Rozina, 1991]. Bular - katta hajmdagi axborotni saqlash va yetkazib berish imkoniyatiga ega bo'lgan kumulyativ funksiyasi va shaxslarning fe'l-atvorini tartibga solish, unga ma'lum darajada ta'sir o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lgan direktiv funksiyasi. A.Yu. Musorin

ta'kidlashicha, frazeologik birliklar so'zlar kabi atrofimizdagi voqeliklarni o'zida aks ettiradi, ko'pgina so'zlardan farq qiladigan tomoni esa, ular o'zida aniq ifodaga ega bo'lgan ekspressiv bo'yoqdor iboralarga ega bo'ladi [Musorin, 2004]. S.M. Axmadaliyeva fikriga ko'ra, har bir tildagi frazeologik birliklar iboralarning, so'z birikmalarining to'g'ri va ko'chma ma'nolarini o'rganadi [Axmadaliyeva, 2016].

Z.N. Abdusamadov o'z tadqiqot ishida frazeologik birliklarning chegaralari va turlarini belgilash masalasi borasida alohida to'xtalar ekan, unda bugungi kun talablaridan kelib chiqib, ularni struktur - semantik xususiyatlari, semantik ma'nosi va qo'llanilish xususiyatlari kabi tamoyillar asosida tasniflaydi hamda ularga batafsil ta'rif berib o'tadi [Abdusamadov, 2022; 16-20]. Jumladan, frazeologik birliklarning chegaralarini struktur - semantik jihatdan belgilash deganda asosiy e'tibor ana shu til birliklarining ifoda planiga, ya'ni ularning tashqi shakliga qaratilishi nazarda tutiladi. Shu bilan birga, frazeologik birliklarning struktur- semantik tuzilishi ushbu til birliklarini tashkil etuvchi tuzilmalar qanchalik murakkab bo'lsa, ularning ma'no va obrazli asosi shunchalik keng bo'lishi bilan izohlanadi; frazeologik birliklarning chegaralarini semantik ma'nosi jihatidan belgilash haqida gap ketganda asosan markaziy sema sifatida qaraladigan, predmetlilik, protsessuallik, munosiblik, harakat yoki boshqa belgining sifat-holat belgisi, miqdor, relyativlik, bog'lovchi ma'no, partikulyarlilik va modallik kabi elementlarni o'z ichiga oluvchi kategorial ma'no tushuniladi; frazeologik birliklarning chegaralarini qo'llanilish xususiyatlari bo'yicha belgilash deganda frazeologik birliklarning gapda nominativ, grammatik va modallik vazifalarini bajarishi nazarda tutiladi.

Frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari haqida turlicha aspektda berilgan yuqoridagi fikrlarga yakuniy xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, tilning boshqa birliklari kabi frazeologik birliklar ham doimo rivojlanishda va o'zgarishda bo'ladi, buning natijasida ularning o'ziga xos xususiyatlari va bajaradigan vazifalari ham yangidan- yangi aspektda boyib rivojlanib boradi, ularga xos belgilar va bajaradigan funksiyalari qatoriga yangi belgilar va funksiyalar paydo bo'ladi hamda ushbu rivojlanish

va yangicha talqin frazeologik birliklarni o'rganadigan frazeologiyaning tilshunoslikning alohida mustaqil bo'limi sifatida yanada mustahkamlanishiga alohida hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdusamadov Z. N. (2022). Ingliz va o'zbek tillarida antroponimik komponentli frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari. Filol. fan. fal. dok-ri dis. Toshkent.
2. Ergasheva G. I. (2011). Ingliz va o'zbek tillari frazeologizm va paremiyalarida gender aspektining qiyosiy-tipologik tadqiqi. Filol. fan. fal. dok-ri dis. Toshkent.
3. Nasirov, A. A. (2016). Fransuz, o'zbek va rus tillaridagi proverbial frazeologizmlarning semantik-stilistik va milliy- madaniy xususiyatlari. Filol. fan. dok-ri dis. Toshkent.
4. Rahmatullayev, Sh., Mahmudov, N., Xolmanova, Z., O'razova, I. & Rixsiyeva, K. (2022). O'zbek tili frazeologik lug'ati. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU.
5. Raximova, Sh. P. (2019). Ingliz tili idiomatik iboralarini o'zbek tiliga o'girishning lisoniy xususiyatlari. Filol. fan. fal. dok-ri dis. Toshkent.
6. Salomov, G'. (1983). Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: O'qituvchi.
7. Suvonova, N. N. (2002). Frazeologiya interpretatsiyaning sistem-sath obyekti sifatida (fransuz tili materiallari asosida). Filol. fan. nomzodi dis. Samarqand.
8. Ахмадалиева, С. М. (2016). Role of phraseology in learning English. Молодой ученый, 3, 27-29.
9. Беликова, И. Ф. (2013). Роль фразеологизмов в лексической системе языка. Гуманитарный вестник, 7, 1-6;
10. Валгина Н. С., Розенталь Д. Э., Фомина М. И. (2002). Современный русский язык: Учебник для филологических специальных вузов. Москва.
11. Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. (1983). Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. – 3-е изд.. Москва.
12. Виноградов В. В. (1977). Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины: Избранные труды. Лексикология и лексикография. Москва.
13. Зыкова И. В. (2001). Специфика гендерной маркированности английских идиом. Москва.
14. Кунин А. В. (1972). Фразеология современного английского языка. Москва.

15. Маджидова Р. У. (2008). Антропоцентрические пословицы: семантика и лингвостатистика (на материале узбекского и русского языков): Дисс. канд. филол. наук. Ташкент.
16. Мусорин А. Ю. (2004). Фразеология как раздел языкознания. Основы науки о языке, 1.
17. Розина Р. И. (1991). Человек и личность в языке. Москва.
18. Умарходжаев, М. И. (1983). Основы фразеологии. Ташкент.
19. Федоров, А. В. (2002). Основы общей теории перевода (Лингвистические проблемы): Для инст. и факул. иностр. яз. Учеб. пособие. – 5-е изд. Москва.
20. Шанский Н. М. (1969). Фразеология современного русского языка. Москва: ВШ.
21. Эмирова А. М. (1988). Русская фразеология в коммуникативном аспекте. Ташкент: Фан.
22. Vrbink A., Vrbink M. (2014). Phraseological units onomastic components: The case of English and Slovene. Revista de Linguistica Teorica y Aplicada Concepcion, 52(1), 135-136.

NOFILOLOGIK TA'LIM YO'NALISHIDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA AUTENTIK MATNLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Shoxida MATYOKUBOVA

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
2-kurs tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Ushbu maqola nofilologik ta'lim yo'nalishi ingliz tili darslarida autentik matnlarni qo'llashning samaralari va autentik matnlardan foydalanishni rivojlantirishga bag'ishlangan. Autentik materiallar nafaqat til o'rganishni rivojlantiradi, balki o'rganuvchining har sohadan dunyoqarashini oshirishda muhim omil bo'la oladi. Bundan tashqari haqiqiy matnlardan foydalanishning ahamiyati va zarurligini ularning chet tillarini o'rgatishdagi rolini aniqlashga harakat qildik. Nofilologik ta'lim yo'nalishida ingliz tili darslarida haqiqiy matnlarning qo'llanilishining avzalliklari va qulayliklarini qisqacha o'rganildi.

Kalit so'zlar: autentik, nofilologik, madaniyatlararo, kompetensiya, idrok, kommunikativlik.

Chet tillarni o'qitishda so'z yoki lug'at tanlash ma'lum bir mavzu doirasi bilan cheklanib qolmoqda. Kontekst ma'noni yaratishda muhim rol o'ynaydi. Chet tillari pedagogikasi tilni kontekstda o'rgatish zarurligini targ'ib qiladi, garchi o'qituvchilar tilni